

# SHUKRULLONING “KAFANSIZ KO‘MILGANLAR” ASARIDA KO‘TARILGAN IJTIMOY TENGSIZLIK MUAMMOLARI

*Andijon davlat chet tillari instituti*

*Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi, dotsent*

*Bahriddinov Muslimbek Muhiddinovich*

*Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi*

*Shahobiddinova Risolatoy Abdurahmon qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Shukurulloning “Kafansiz ko‘milganlar” avtobiografik asarida ko‘rsatilgan ijtimoiy tengsizlik muammolari va siyosiy ahvol tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi asardagi real voqea va qahramonlar orqali ijtimoiy tabaqalanish, siyosiy kelishmovchiliklarning badiiy aksini o‘rganishdir. Metodologiya sifatida kontekstual tahlil va sotsiologik tahlil qo‘llanilgan bo‘lib, ijtimoiy va siyosiy masalalarning tasvirlanishi o‘rganilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Shukurulloning mazkur asari insoniyatning jamiyatda duch keladigan tengsizliklarni realistik uslubda aks ettirgan. Ushbu maqola adabiyotshunoslikda Shukurullo asarlarini ijtimoiy kontekstda o‘rganishning yangi yondashuvlarini ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy tengsizlik, qashshoqlik, kommunistlar.

**Annotation:** This article analyzes the issues of social inequality and the political situation depicted in Shukurullo’s autobiographical work “Kafansiz Ko‘milganlar” (Buried Without a Shroud). The main objective of the study is to examine the artistic representation of social stratification and political conflicts through real events and characters in the work.

The study employs contextual and sociological analysis methods to explore how social and political issues are portrayed in the novel. The findings indicate that Shukurullo’s work realistically reflects the inequalities and poverty faced by society, prompting the reader to engage in deep reflection. This article introduces new approaches to studying Shukurullo’s works in a social context within literary studies.

**Keywords:** social inequality, poverty, communism, political analysis.

**Аннотация:** В данной статье анализируются проблемы социального неравенства и политическая обстановка, отраженные в автобиографическом произведении Шукрулло «Похороненные без савана». Основная цель исследования – изучить художественное отображение социальной стратификации и политических конфликтов через реальные события и персонажей в произведении.

В исследовании использованы методы контекстуального и социологического анализа, с помощью которых рассматривается, как в книге изображены социальные и политические проблемы. Результаты показывают, что данное произведение Шукрулло реалистично отражает проблемы неравенства и бедности в обществе, побуждая читателя к глубоким размышлениям. Данная статья предлагает новые подходы к изучению творчества Шукрулло в социальном контексте в рамках литературоведения.

**Ключевые слова:** социальное неравенство, бедность, коммунизм, политический анализ.

Shukrulloning ijodida insoniy qadriyatlar, o‘zbek xalqining ilgarigi hayoti va ijtimoiy muammolar markaziy o‘rin tutadi. “Kafansiz ko‘milganlar” qissasi orqali yozuvchi sovet davridagi qiyinchiliklar, vaxshiy tuzum va insonlar hayotini tasvirlaydi. Asarda inson irodasi va jamiyatdagi qashshoqlik masalalari birgalikda ochib beriladi. Ushbu mavzuni o‘rganish bugungi kun ijtimoiy muammolarni chuqurroq anglash va marhum shoir ijodining zamonaviy dolzarbligini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Tadqiqotimizdan ko‘zlangan maqsad hikoyadagi ijtimoiy muammolarni va ularning bugungi jamiyatda ta’sirini o‘rganishdir.

Ushbu tadqiqot sifatli yondashuv va kontekstual tahlil usuli asosida olib boriladi. Tadqiqotning asosiy materiali sifatida Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” asari tanlangan asardagi ijtimoiy muammolar, qashshoqlik, ijtimoiy tengsizlik o‘rganiladi. Tahlil davomida hikoyadagi voqealar, obrazlar va diologlar o‘rganilib, ular bugungi jamiyat ijtimoiy muammolari bilan bog‘lanadi. Ushbu tadqiqotda asosiy e’tibor “Kafansiz ko‘milganlar”ning ijtimoiy ahamiyatiga qaratilgan.

Boshidan o'tkazgan qiyinchiliklarini, to'g'rirog'i, xo'rliklarni eslash insonni yana bir gara og'ir azobga robaro qiladi. Uni yozish esa... Qatag'onlik davri tasviri, undan ham og'irroq'i o'zining va yurt ziyolilarning "xalq dushmani" deb ayblanishi haqida yozish, mahbuslik davrlarini eslash, qamoq voqealari va lager hayoti, so'zsizlik... Bularning haqqoniy tasviri Shukrulloning "Kafansiz ko'milganlar" asarida yaqqol ifodalangan. Asarni boshqalardan ajratib turadigan jihati- uning mazkur mavzudagi yagona asarligida. Ushbu xotira-roman o'quvchiga qatag'on davri haqida tirik lavhalarni namoyish etadi.

Shukrullo ushbu asar orqali o'z davr qiyinchiliklari ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, siyosiy muammolar va eng avvalo, Turkiston xalqining ayanchli taqdirini bayon qiladi. Asar davomida hayotning ma'nosi va insonning bu dunyodagi o'rni haqida savollar ko'tariladi. Qahramonlar o'zlarining maqsadlarini, umidlarini va kelajaklarni izlaydilar. Bu esa o'quvchi hayotining mazmuni haqida o'ylashga undaydi. Insonning o'zligini topish va o'z-o'zini anglash jarayoni asarda markaziy o'rin egallaydi. Qahramonlar ko'pincha hayotning noaniqliklari bilan yuzma-yuz keladilar. Bu esa ularning qarorlarini o'zgartirishga ta'sir qiladi. Bu g'oya inson o'z kelajagini oldidan bilmasligi va har bir kunga ya'ni imkoniyatlar bilan qarash zarurligini ko'rsatadi. Ba'zi tadqiqotchilar Shukurulloni "Ushbu asar syujeti ustida yaxshiroq ishlashi va bir xil manzarani 5-6 bor takrorlayveradi. Ya'ni kichik narsalarga urg'u berilib, qo'lga ilinadigan kattalari chekkada qolib ketadi" degan fikrlarini berishgan. Menimcha o'sha davr qiyinchiliklarini mahorat bilan ifodalagan va o'quvchiga to'g'ridan to'g'ri, hech bir muammolarsiz tushunarli bo'ladigan, yosh avlodga sovet tuzumi, turkiy xalqlarning qiyinchiliklarini ko'rsatib beruvchi yagona asar deb hisoblayman. Asarni menga eng yoqqan jihati yosh ijodkorlar uchun nimanidir o'rgata oladi. Adolatsizlik, tuhmat azoblari qanaqa bo'lishi haqida tasavvur bera oladi.

Hukumat "aqlli" aqlsizlar qo'lida qolgan bo'lib, ularning o'zlariga qarshi chiqadigan yoki bo'lmasa rahbarlarga qulluq qilmaydiganlar shubhali ko'rinar, so'ngra ularni yolg'onlar bilan ayblab, qamatishga urinishardi. Asarda yozilganidek Mamanbey mahalla komissiyasi-muttaxam odam edi. Yozuvchining otasini "qori

domla” deb chaqirar va Mamanbeyning bu so‘zga urg‘u berib chaqirib kelishi sababi,”Mening ko‘nglimni ovloymasang,dindor, domla deb quloq qildirish ham qo‘limdan keladi” degan do‘q, ta’na ma’nosida bo‘lardi.Shukurulloning otasi emchi ekanligini ta’kidlab, bir necha hujjatlarni unga ko‘rsatar va chalasavod Mamanbey uni o‘qiy olarmidi, yo‘qmi,”bu hujjatlarni falon joyga ko‘rsating” degancha biror narsa undirolmay qaytardi. Hukumatning maqsadi xalqdan bir nimalar undirish bo‘lib turgan bir paytda ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlik ham avjida edi. Aholi endigina yeyishga non topsa,ichishga suvi qolmasdi. Haqiqatdan ham, boyib, hammadan o‘zib ketgan birorta kommunistik mamlakatni tarix ko‘rmagandek, Turkiston ham kambag‘allashib borayotgandi.

Jahon urushlarida jonbozlik ko‘rsatgan Turkiston o‘g‘lonlari,endi “xalq dushmani”, “millatchi” degan nomni “qozonish uchun qattiq jang”olib borayotgandi. Turkistonda yashaydigan turli millatlar boshiga mislsiz zulm, vaxshiyona qiynoqlar solingan.Ayniqsa, hokimiyat tepasiga Stalin kelganidan keyin sho‘ro xalqining 1937-yildan boshlab, mislsiz qatog‘onlar tufayli 10 minglab,yuz minglab insonlar hech bir sababsiz qamab yuborilgan,olis yurtlarga surgun qilingan yoki otuvga hukm qilingan. Bundan yagona va oliy maqsad yurtning olimlari, oqillari,adiblari,ulamolari va ziyolilarning yo‘q qilinishi, O‘zbekistonning asl farzandlarini “xalq dushmani” sifatida qatog‘on qilish edi.Bundan aziyat chekkanlarning ba’zilari aybdor,ba’zalari ayibsiz edi. Asar yozuvchisining xonadoshlari bo‘lgan Loren va Ilyos otalar ham mana shu kabilardandir. Loren urushdan tirik qaytib kelgan va lekin “nemis ayg‘oqchisi”sifatida qamoqqa olingan edi. Ilyos ota esa choyxona oldida pista,sigareta va shu kabi narsalarni sotib o‘tiruvchi, yoshi ham anchaga yetib qolgan 70-75 yosh atrofidagi oddiy bir chol edi va uni ham millatchi,sovet siyosatiga qarshi deb ayblab qamashgandi. Xuddi mana shunday aybsiz aybdorlar qatorida Fayzullo Xo‘jayev, Akmal Ikromov kabi siyosatchilar 1938-yili qatag‘on qilingan Tojixon Shodiyeva 1928-yildan boshlab, umrining 20 yilini surgunda o‘tkazgan.Mahmudxo‘ja Behbudiy 1919-yili ayg‘oqchi sifatida otib o‘ldiriladi. Munavvar qori Abdurashidxonov 1931- yilda millatchi, jadidlarning boshlovchisi sifatida otib o‘ldiriladi. Hamza Hakimzoda Niyoziy 1929-

yilda toshbo'ron qilib, Shohimardonda o'ldiriladi. Usmon Nosir o'zbek xalqi adabiyotini titratgan yosh shoirimiz 1937-yil 24 yoshida surgun qilinadi va xuddi shu qatorda Abdutauif Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lponlar ham "millatchi", "xalq dushmani" sifatida 1938-yil o'sha qonli 4-oktabr kunida otib o'ldiriladi.

Millatchmish bobom nomi,

Aybi- yozgan dil izhorin.

Erkin bo'lsin avlodim deb,

Fido qilgan yurtga jonin.

"Bosmachi"der yana biri,

Qonga to'lgan uning dili,

Ko'rmadilar ozod yurtin,

Jafokorim, bobolarim.

Qonga tashna vaxshiy oris,

Ko'rolmadi o'zbek zo'rin,

O'sha qonli oktabrda

Otdi, ketdi jadidlarim. (Shahobiddinova Risolatoy ijodidan)

Shukrulloning mazkur asari orqali o'zbek xalqining qatog'on kunlarida boshidan kechirgan qiyinchiliklari, surgun davrida o'tgan qaro kunlari va o'sha "millatchi", "xalq dushmani", "chet el ayg'oqchisi" nomi bilan otuvga hukm qilingan, surgun qilingan bobolarimizning fidokorliklari, millatparvarliklari va o'sha qonli davrning haqiqiy aksini ko'rishimiz mumkin. "Kafansiz ko'milganlar" asari – insoniyatning ichki kurashlarini va ijtimoiy masalalarni chuqur tahlil qiluvchi badiiy asar. Muallif, o'z qahramonlari orqali hayotning murakkabligini va inson ruhiyatining nozik jihatlarni ochib beradi. Umuman olganda, "Kafansiz ko'milganlar" asari falsafiy jihatdan inson hayoti, o'z-o'zini anglash va sotsial muhit bilan aloqalar masalalarini chuqur tahlil qiladi. Shukurullo o'z asari orqali o'quvchini hayot haqidagi falsafiy savollarini o'ylashga chaqiradi va inson ruhiyatining murakkabligini ochib beradi.